

## BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA IJTIMOIY KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Nigora Adizova

BuxDPI dotsenti (PhD)

Uktamova Mohinur

BuxDPI 2-kurs magistranti

### Annotatsiya:

ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirish texnologiyalari va ularni amalga oshirish vostilari haqida fikr-mulohazalar yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy ko'nikma, ijtimoiy moslashuv, ijtimoiylashuv, individuallashuv, ijtimoiylashuv vositalari.

Vatanimiz mustaqillikka erishgach, milliy tarbiya va ta'lim sohasida keng qamrovli islohotlarni amalga oshirish uchun zamin yaratildi. Ta'lim-tarbiya sohasida ko'plab islohotlar o'tkazilib, o'zgartirishlar kiritildi. Zero, mustaqillik fikr-mulohazalarda ozod, o'z haq-huquqini yaxshi taniydigan, izlanuvchan, zamonaviy bilimga ega, Vatanga, ona zaminimizga sadoqatli, boqimandalikning har qanday ko'rinishlarini o'zi uchun or deb biladigan, o'z kuchi va aqliga ishonib yashaydigan, o'z shaxsiy manfaatlarini xalq, Vatan manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan barkamol insonni tarbiyalashni talab etadi. Bunday avlodni tarbiyalash esa, bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Bolaga yoshligidanoq to'g'ri tarbiya berish, ta'limning to'g'ri yo'naltirilganligiga e'tibor qaratish faqatgina o'qituvchilar tomonidan emas, balki oila a'zolarining ham birday zimmasidagi masala sanaladi. Bolani ijtimoiy hayotga moslash, unga ijtimoiy ko'nikmalar berish uning jamiyatda kerakli shaxs bo'lib voyaga yetishiga sabab bo'la oladi.

Ijtimoiy ko'nikmalar - bu ijtimoiy xulq-atvorning o'zlashtirilgan elementlari bo'lib, ular ijtimoiy olam, o'zi va bu yorug' olamdag'i o'rni, ijtimoiy o'zaro aloqalarni osonlashtiradigan xatti-harakatlar haqidagi bilimlarga hamda insonga atrof-muhit bilan munosabatlarni samarali ravishda o'rnatish, o'z o'rnini belgilab olish va o'zligini namoyon qilishga imkon beradigan harakatlarga asoslanadi hamda bu muvaffaqiyatli ijtimoiy moslashuv va umuman olganda, ijtimoiylashishga yordam beradi.<sup>1</sup>

Ijtimoiylashuv insonning madaniyatni o'zlashtirish jarayonidagi rivojlanish va o'zgarishi bilan aniqlanadi. Ushbu hodisani ijtimoiy pedagogika sohasi o'rganishi bizga ma'lum. Ijtimoiy pedagogika bilan pedagogika sohasi o'rtasidagi farq ham aynan shunda. Pedagogikaning o'rganish predmeti bolani tarbiyalash qonuniyatlari hisoblanadi, ijtimoiy pedagogikaning predmeti esa bolani ijtimoiylashtirish qonuniyatlari hisoblanadi. Ijtimoiy

<sup>1</sup> Adizova N. O'quvchilarda ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish texnologiyasi. B.-“Globe”nashriyoti, 2022.

pedagogika va pedagogik sotsiologiya- bu bolalarning ijtimoiylashuvi va bolalarga ijtimoiy ta'lif va ijtimoiy tarbiya berish qonuniyatlarini o'r ganuvchi pedagogika fanining tarmog`idir. Ammo ikkala fanning ham obyekti bola, uning ta'lif tarbiyasi, jamiyatda muhim shaxs sifatida tarbiyalanishi ikkala sohada ham o'z ifodasini topadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarning ijtimoiylashuvi, xususan, insonning ijtimoiy moslashuvi uning hamma narsani egallashga bo'lgan obyektiv ehtiyoji jarayonida paydo bo'ladi. Biroq bu bilan uzviy ravishda bola boshqa bir obyektiv ehtiyoj -o'ziga xosligini namoyon qilish hissi ham shakllanadi. Bola uni yuzaga chiqarish uchun turli usul va vositalarni qidira boshlaydi va buning natijasida uning individuallashuvi ro'y beradi. Bu hodisa shunda namoyon bo'ladi, shaxsning ijtimoiy ahamiyatga ega hislatlari individual, faqat shu shaxsga tegishli tarzda namoyon bo'ladi, uning ijtimoiy yurish-turishi takrorlanmas jihatlarga ega bo'ladi. SHunday qilib bolaning ijtimoiy rivojlanishi ikki o'zaro bog'liq yo'nalishda olib boriladi: ijtimoiylashuv (ijtimoiy madaniy tajriba madaniyatni o'zlashtirish) va individuallashuv (mustaqillik, nisbiy o'ziga xoslikni qo'lga kiritish). SHu tarzda ijtimoiylashuv tushunchasi zamonaviy fanda moslashuv (birlashish) va individuallashuv jarayonlari bilan bog'liq. Ijtimoiylashuv jarayonining mazmuni inson(bola)ning aniq bir jamiyat sharoitlariga moslashuvidir. moslashuv sub'ekt va ijtimoiy muhit faolliklarining yaqinlashuv jarayoni va natijasidir. (J.Pia Je, R.Mertoj).

Ijtimoiy moslashuv esa ijtimoiy muhit talablariga insonning munosabat bildirishidir. Shunday qilib, ijtimoiylashuv (moslashuv) individning ijtimoiy mavjudodga aylanish jarayoni va natijasidir.

Maktabgacha va boshlang'ich sinf o'quvchilari ijtimoiylashuvining yetakchi vositalari muomala (ota-onalar, tengdoshlar va boshqalar bilan) hamda faoliyat (o'yin, o'qish, ijod, sport)dir. Ushbu kategoriyalar, avvalo, bola tashayotgan xonadonda, maktabgacha ta'lif muassasasida, so'ngra esa, maktabda bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Boshlang'ich sinf darsliklarida bolaning ijtimoiy ko'nikmalarini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan bir qancha fanlar mavjud. Har bir fan o'zaro uzviylikda bo'lib, ularni bola tarbiyasiga qaratilgan ijtimoiylik hodisasi birlashtirib turadi. 2-sinf tarbiya darsligida: do'stlarga g'amxo'rlik qilish, kichiklarga yordam berish, kattalarni hurmat qilish, kiyinish madaniyatiga rioya qilish, xushmuomala bo'lish, kech qolmaslik, darsga tayyor holatda kelish, darsda tartibli bo'lish, o'ng qo'l qoidasiga amal qilish, xavfsizlik qoidalariga rioya qilish, oshxonada tartibga rioya qilish kabi ko'nikmalar bilan shakllantiriladi. O'quvchi dars davomida bolalar bilan muomala qilish, ular bilan do'stlashish, do'stlikning asl mohiyati (bolalar dunyoqarashidan kelib chiqqan holda)ni anglab borishadi. Bolaning yoshidan kelib chiqqan holda, bosqichma-bosqich (soddadan murakkabga qarab) ijtimoiy ko'nikmalar shakllantirilib boriladi va bolalar bir yoshga ulg'ayib, 3-sinf bo'lishganda bir muncha murakkabroq ijtimoiy ko'nikmalarini egallahsga kirishishadi. Endi ular kun tartibiga rioya qilish, tartibli bo'lish, salomatlikni asrash, tejamkor bo'lish, rostgo'y bo'lish, berilgan topshiriqlarga mas'uliyat bilan

yondashish, bilimini oshirib boorish, bag'rikeng bo'lish, jamoat joylarida tartibga rioya qilish kabi qat'iy qoidalarga rioya qilish talab etiladi. 4-sinfda esa, endi qonunlar bilan ham boshlang'ich ma'lumotlar beriladi. Ularga amal qilish, tartib qoidasi qanday bo'lishi kerakligi haqidagi dastlabki ma'umotlar bilan tanishib chiqadi. Hallolik nima ekanligi, halol insonning risq-barakasini, vatanning asrash kabi ulug' burchga mas'uliyat bilan yondashish zarurligi, milliy qadriyatlarga hurmat kabi ko'nikmalar boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijtimoiy hayotga moslashtiradi. Bu kabi elementlarning o'qitilishi, bola ongiga singdirilishi, albatta, pedagogining mahoratiga bog'liq jarayon hisoblanadi.

Bundan tashqari bola ijtimoiylashuvi u yoki bu jamiyat ijtimoiy qatlamlariga xos bo'lgan universal vositalar orqali amalga oshiriladi, ularga: maishiy va gigiyenik yurish-turish qoidalari, insonni o'rabi turuvchi moddiy madaniyat mahsulotlari, ma'naviy madaniyat unsurlari(alladan boshlab ertaklargacha), muomala usuli va mazmuni, shuningdek oilada jazolash va mukofotlash uslublari, insonning hayotiy faoliyatidagi ko'p sonli munosabatlari-muloqot, o'yinlar, ma'naviy-amaliy faoliyat, sport bilan shug'ullanish kiradi.

Shuning uchun ham biz yuqorida barcha fanlar uzviy bog'liqlikni tashkil qiladi va bola ijtimoiylashuvida asosiy obyekt bo'lib hisoblanashini ta'kidlab o'tgan edik. Fikrimiz dalili sifatida yuqoridagi misollarni asos qilib olishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish texnologiyasi boshlang'ich sinf darsliklari asosida ishlab chiqilib, bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Ushbu tendensiyalar asosida bolaning ta'lim-tarbiyasi ijtimoiylashuvini amalga oshirish imkonimiz kelib chiqadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Адизова Нигора Бахтиёровна. Оқсоқол Бува, Бола Ба Хон Образлари Қизиқмачоқлар Талқинида. Journal of innovations in social sciencesjournal of innovations in social sciences. 02 Issue: 01 | 2022.
2. Adizova Nigora Bakhtiyorovna. The Arrival of Great, Child and Khan Images in Interesting. European journal of life safety and stability (ejlss). [Www.ejlss.indexedresearch.org](http://www.ejlss.indexedresearch.org) Volume 14, 2022 |
3. Nigora Adizova Baxtiyorovna. 3-4-sinf ona tili darslarida qo'llanadigan tayanch kompetensiyalar. Journal of Advanced Research and Stability. Volume: 02 Issue: 01 | 2022
4. AB Rakhmonovich, AN Bakhtiyorovna. THE MAIN MOTIVES AND TASKS OF CHILDREN'S FOLKLORE. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL)
5. Нигора Бахтиёровна Адизова, Ҳилола Худойбердиева. ҚИЗИҚМАЧОҚЛАРДА ОҚСОҚОЛ ВА ХОН ОБРАЗЛАРИ. Scientific progress
6. Nigora Baxtiyorovna Adizova. Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini o'stirishda mustaqil ishlarning o'rni va ahamiyati. Scientific progress

7. NB Adizova, M Raimqulova. Use of alisher navoi's spiritual and enlightenment views in textbooks for grades 1-4. Актуальные вопросы современной науки и образования, 121-123
8. . NA Bakhtiyorovna, NA Bakhtiyorovna. Anvar obidjon is a children's poet. Middle European Scientific Bulletin
9. AN Bakhtiyorovna, E Dilsora. Visual Aids, Which Are Used In The Educational Process In The Use Of Didactic Games. The American Journal of Social Science and Education Innovations 3 (31), 540-545
10. AN Bakhtiyorovna, AN Bakhtiyorovna. The role of the fun genre in children's spiritual development. Middle European Scientific Bulletin 4, 38-40
11. Adizova Nigora, Adizova Nodira. Alisher Navoiyning tibbiy qarashlari. Conferences.
12. Jumayev, Ruzokul. "Sadriddin Ayniy asarlaridagi joy nomlarining tahlili." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 23.23 (2022).
13. Jumayev, Ruzokul. "САДРИДДИН АЙНИЙ АСАРЛАРИДАГИ АРАБЧА ТОПОНИМЛЯР." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 23.23 (2022).
14. Xoliqulovich J. R. SADRIDDIN AYNIYNING "ESDALIKLAR" ASARIDA ANTROPONIMLARNING LEKSIK QATLAMLARI: Jumayev Ruzokul Xoliqulovich Buxoro davlat universiteti katta o 'qituvchisi //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2022. – №. 3. – С. 34-37.
15. Xoliqulovich, Jumayev Ruzokul. "Using anthropometric units in" Esdaliklar" by Sadriddin Ayniy." European Journal Of Innovation In Nonformal Education 2.2 (2022): 295-298.
16. Jumayev, Ruzokul. "SADRIDDIN AYNIYNING "ESDALIKLAR" ASARIDA OYKONIM TURLARINING QO 'LLANISHI." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 7.7 (2021).
17. Jumayev, Ruzokul. "САДРИДДИН АЙНИЙНИНГ ОДИНА ҚИССАСИДА НОМ ҚЎЙИШ САНЪАТИ." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 2.2 (2021).
18. Xoliqulovich, Jumayev Ruzokul. "Influence of Sadriddin Aini life and works in spiritual and moral development of students." Middle European Scientific Bulletin 11 (2021).
19. Jumayev, Ruzokul. "Joy nomlarining tarkibiy tahlil usullari." ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 2.2 (2020).
20. Jumayev R. SADRIDDIN AYNIY ASARLARIDA AGORONIMLARNING LEKSIK TAHLILI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 27. – №. 27.
21. Jumayev R. SADRIDDIN AYNIY ASARLARIDA TOPONIMLARDAN STILISTIK MAQSADLARDA FOYDALANISH //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 27. – №. 27.
22. Jumayev R. САДРИДДИН АЙНИЙ АСАРЛАРИДАГИ АДАБИЙ (БАДИЙ) ТОПОНИМЛЯР //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 27. – №. 27.